

This is not registered version of TotalDocConverter  
 Turkiston muxtoriyati. Turkistonning umumiyotlari yoninda, turkistonning tubchak turklari orasinda, mundan o'g'urli[1], mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so'zni borlig'iga ishonmayman.  
 Turkiston turkinining qonini qaynatg'uchi, imonini yuksaltguchi bir quvvat bor esa, yolg'uz shu so'zda bordir: Turkiston muxtoriyati. Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g'asb qiyaindi, huquqimizg'a tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimli turdik, sabr etdik.

Kuchga tayangan har buyrug'ga bo'yinsundik, butun borlig'imizni qo'lidan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yashrun turdik, emgaklarimizg'a o'rab saqladik: Turkiston muxtoriyati!

Mahkama eshiklaridan yig'lab qaytg'anda, yoruqsiz turmalarda yotg'anda, yirtg'uchi jandarmning tepgusi bilan yiqilg'anда, yurtlarimiz yondurulg'anda, dindoshlarimiz osilg'anda ongimiz yo'qoldi, miyamiz buzildi, ko'zimiz yog'dusiz qoldi, biror narsani ko'rolmadik. Shul chog'da, tushkun ruhimizni ko'tarmak uchun shul qop-qorong'u dunyoning uzoq bir yerinda oydin bir yulduz yalqillab tura(r) edi. Biror narsaga o'tmagan ko'zimiz shuni ko'rар edi. Ul nima edi? Turkiston muxtoriyati!

Biz aniq bila(r) edikkim, zolim Nikolay hukumati qancha yasharsa yashasun, adolat oshiqi bo'lg'an... rus demokratiyasini, haqg'a tayangan bir inqilob, har millatning o'z haqlarini qaytarur.

Inqilob bo'ldi. Rusiyaning "qo'shma xalq jumhuriyati" usuli bilan[2] idora etiluri jarlandi. Shul e'lon uzra yasalgan Ukraina, tatar va boshqa millatlar muxtoriyatlari tasdiq etildi. Qo'nuq[3] Turkistoni kabi. Turkistonning tarixiy xonbaliqlaridan ikkinchisi bo'lg'an Xo'qand shahrinda to'plang'an Turkiston qurultoyi 27 no'yabrning "milliy laylaturqadrimiz bo'lg'an" yarim kechasinda Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi.

Lekin shunisi borkim, bir millatning muxtoriyati yolg'uz bir s'ezdning e'loni bilan tamom bo'lmas. Muxtoriyatni olmoq va saqlamoq kerakdir. S'ezd o'z ishini qildi. Qolganlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq uchun aqcha keraqdir. Bularni millat hozir qilsun.

("Hurriyat", 1917 yil, 5 dekabr).

Maqola "Fan va turmush"ning 1990 yil, 10-sonida (30-31-betlar) qayta nashr qilingan nashrga tayyorlovchi Sh. Turdiev.

Б†‘ о'г'урли - haybatli, buyuk.

Б†‘ "qo'shma xalq jumhuriyati" usuli - Rusiyaning federatsiya asosidagi boshqariluvi nazarda tutiladi. Dastlab, boshqa respublikalar ittifokdosh jumhuriyatlar bo'lib emas, balki Rusiya hududidagi muxtor (avtonom) jumhuriyatlar bo'lib birlashganlar.

Б†‘ qo'nuq - navbat, gal.